

RADIKAL TOIFA: SOXTA SALAFIYLAR TAHDIDI.

Ma'rufjon Raximov

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islomshunoslik yo'nalishi, 2-kurs talabasi,*

marufjon19941005@gmail.com

(93)7740550

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zlarining botil tushuncha va g'oyalari bilan dunyo hamjamiyatida tinchlik va barqarorlikka tahdid solib kelayotgan, g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda islom dinini o'zlariga niqob qilib olgan ekstremistik tashkilot, soxta salafiylik oqimining yuzaga kelish tarixi va ta'limot asoschilari, ular ilgari surayotgan da'volarining ahli sunna val jamoa qarashlariga xilof, ijtimoiy hayotda xavflilik darajasi yuqori bo'lgan ba'zi qarashlari, ular faoliyatining jamiyat hayotida keltirib chiqarayotgan tahdidlari, ular ortidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararli oqibatlari haqida fikrlar beriladi. Shuningdek, soxta salafiytlarning turli davrlarda yuritib kelayotgan faoliyat uslublari, jarayonlari ishonchli manba'larga tayangan holda taqdim qilinadi. Maqola so'ngida soxta salafiylik tahdidlari haqida xulosa qilinadi hamda soxta salafiytlar ilgari surayotgan g'oyalari ortidan yuzaga kelayotgan tahdidlarni oldini olish borasida maqola muallifining takliflari ham keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Ahli sunna val jamoa, soxta salafiytlar, oqibat, maqsad, uslub, jihod, hijrat, takfir, mazhabsizlik, boshboshdoqlik, ixtilof, eksterimizm, terrorizm.*

Kirish: Ilm va qalam ahli holat taqozosiga ko'ra jamiyat uchun manfaatli, dolzarb mavzularda ijod qilishi, ilmiy ishlar va izlanishlar olib borishi lozim. Bugun musulmonlar jamiyatida sun'iy tarzda yuzaga keltirilayotgan ixtiloflar va ziddiyatlar, musulmonlarning firqalarga bo'linishda davom etayotganligi, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tamoyillariga rioya etilmaslik, xalqlar va jamiyatlarning tinchligi va taraqqiyotiga rahna solayotgan mafkuraviy urushlar dunyo hamjamiyatining eng dolzarb muammolaridan bo'lib turibdi. Bunday dolzarb muammolarni keltirib chiqarayotgan diniy-siyosiy, eksterimistik, terrorchi tashkilotlar, guruhlar va oqimlar faoliyati borasida daqiq izlanishlar olib borib, ularning asl maqsadlari, botil da'volari va faoliyat uslublarini ilmiy asosda fosh etib insonlarni bunday yovuz maqsadli oqimlarning tuzog'iga tushib qolishlaridan saqlab qolish, shuningdek, bunday oqimlar faoliyati oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi tahdidlardan ogoh etish ilm ahllarining zimmalariga ulkan mas'uliyatni yuklaydi.

Bugun o'zlarini "salafiytlar" deb nomlab, faoliyatiga islomiy tus berib, botil maqsadlarini islom niqobi ostida amalga oshirishga urinayotgan soxta salafiytlar tahdidi eng dolzarb muammolardan bir bo'lib turibdi. Dunyo hamjamiyatida bo'layotgan voqealarni tahlil qilish, mohiyatini anglash uchun kishi, albatta, tarix ilmiga muhtoj bo'ladi. Shu e'tibordan, maqolamizda dastlab, islom dinining asl mohiyati yoritib beriladi, so'ngra soxta salafiytlar tarixi, ularning ilgari surayotgan da'volari, ularning turli davrlardagi faoliyat

uslublari hamda maqola soʻngida soxta salafiylik oqimining faoliyati borasida xulosa va yechim taklif qilinadi.

Asosiy qism: Islom dini insonni ulugʻlaydigan, uning qadrini barcha narsadan ustun qoʻyadigan, insonlarning hayoti osoyishta kechishini taʼminlashga qaratilgan tartib-qoidalar, insonlarning tinch-totuvlikda, hamjihatlik bilan hayot kechirishini istaydigan, ilm-maʼrifat bilan taraqqiy etishga chaqiradigan eng ezgu gʻoyalar majmuyi boʻlgan dindir. Shuningdek, “Islom dini inson manfaatlari va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi har qanday kashfiyot va yangiliklarni yuksak qadrlagan, qoʻllab-quvvatlagan. Albatta, islom ilm-maʼrifatga asoslangan dindir”².

Tarixdan maʼlumki, islomning ilk davrlaridan boshlab, sof islom eʼtiqodini notoʻgʻri tushunib, uning oqibatida oʻzini ham oʻzgalarni ham toʻgʻri yoʻldan adashtiradigan toifalar yuzaga kela boshladi. Ular islom manbalarini saxobalardan qilingan naqllar asosida emas, balki, oʻz aqllariga koʻra tushunib, sof islomiy qarashlardan uzoqlashdilar. Natijada musulmonlar jamiyatida nizo va ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan, insonlar orasiga nifoq urugʻini soladigan bidʼatchilar bosh koʻtardi va musulmonlar orasida fikran bir-biriga qarama-qarshi har xil oqimlar paydo boʻla boshladi. Xavorijlar, Moʻtaziliylar, Murjialar, Najjoriylar, Jahmiylar, Rofiziylar, Karromiylar, Mushabbihalar, Mujassimalar shular jumlasidandir. Yuqorida nomlari keltirib oʻtilgan botil firqalarning qarashlaridagi asosiy farqlari insonlarni arzimagan sabab bilan kufrga nisbat berishlari, xalqni hukumatga qarshi bosh koʻtarishga undashlari, faqat oʻzlariga ergashganlarni haqiqiy musulmon deb hisoblab, oʻzgalarni esa iymonsizlikda ayblashlari kabilar edi. U firqalarning faoliyati uzoq davom etmadi. Zotan, botil zavol topguvchidir. Biroq, ularning fikriy qarashlari bugungi kunda oʻzlarini “salafiyalar” deb daʼvo qilayotganlarning qarashlarida va faoliyatida maʼnan davom etmoqda. Shu oʻrinda “salafiyalar kimlar? Nega bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida bu nomga koʻp duch kelmoqdamiz?” kabi koʻplab savollar tugʻilishi tabiiy. Ushbu savollar haqida fikr yuritish esa mavzu mohiyatini teran anglashga yordam beradi.

“Salafiylik” tushunchasi arab tilidagi “salaf” soʻzidan olingan boʻlib, “avval yashab oʻtganlar”, “ajdodlar” kabi maʼnolarni anglatadi. Islomning mujtahid ulamolari ilk musulmonlarni “salaf solih”, yaʼni “solih ajdodlar” deb hisoblashda yakdildirlar. Ulardan keyingi davrlarda yashagan musulmonlarga nisbatan “salaf” yoki “salafiy”lar tushunchalari aslo ishlatilmaydi.³ “Haqiqiy salafi solihlar kimlar?”-degan savolga ahli sunna val jamoa ulamolari paygʻambarimiz Muhammad (alayhissalom)dan rivoyat qilingan quyidagi hadisni javob qilib keltiradilar:

عَنْ عَمْرَانَ بْنِ حُصَيْنٍ - رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا - يَقُولُ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ " خَيْرُ أُمَّتِي قَرْنِي ثُمَّ الَّذِينَ يُلُونَهُمْ ثُمَّ الَّذِينَ يُلُونَهُمْ " . رَوَاهُ النَّبَخَارِيُّ⁴

Imron Ibn Husoyn (roziyallohu anhumo) aytadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday dedilar: “Ummatimning eng yaxshisi mening zamondoshlarimdir. Soʻngra ulardan keyin keladiganlar. Soʻngra ulardan keyin keladiganlar”. Imom Buxoriy rivoyati.

² “Jaholatga qarshi maʼrifat: (oʻquv qoʻllanma) / J.Karimov . Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot birlashmasi Toshkent-2021, -212B. 10-sahifa.

³ “Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar(Maʼlumotlar toʻplami) / Masʼul muharrir O.Yusupov; Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. – Toshkent, «Movarounnahr» nashriyoti, 2014. - 160 b. 5-sahifa.

⁴ Oltin silsila: 5-juz. Sahihul Buxoriy / - Toshkent: «Hilol-nashr», 2019. – 672 b. 4-sahifa, 3650-hadis.

Hadisning ma'nosidan kelib chiqadiki, haqiqiy salafi solihlar hadisda zikr etilgan uch avlod vakillari, ya'ni sahobiyalar, tobeinlar va tab'a tobeinlardir. "Lekin, bugungi kunda o'zlarini "salafiyalar" deb atayotgan kimsalar biror mazhabni tan olmay, salafalar yo'ldan yurishlarini da'vo qilmoqdalar. Qizig'i shundaki, o'zini salafiy deb hisoblayotganlar salafi solihlar davrida yuzaga kelgan to'rt mazhabni tan olmay, ulardan 500-600 yil keyin yashagan Ibn Taymiya va Ibn Qayyim Javziyning fikrlariga ergashadilar."⁵ Demak, ular aslida salafiy emas, balki, bu nomga da'vogarlar xolos. Ular o'zlarini "salafiyalar" deb nomlab, g'arazli maqsadlarini amalga oshirish yo'lida islomni niqob qilayotganlardir.

"Salafiyalar – hijriy yettinchi asr oxirlarida Ahmad Ibn Taymiya Harnoniy (milodiy 1263-1328, hijriy 661-728 yillarda yashagan) boshchiligida, asosan, ahli sunnat imomi – Imom Ash'ariy (rohmatullohi alayhi) tomonidan talqin qilingan e'tiqodiy islohotlarni rad etish bilan o'rtaga chiqqan toifadidir. Ibn Taymiya o'z yo'nalishini "manhaju salafis solih" (salafi solihlar yo'li) degan nom bilan ataydi va ana shu manhaj asosida hayot kechirish lozimligini ta'kidlaydi. Natijada u asos solgan oqim uning targ'ibotchilari tomonidan "salafiya" deb tanitila boshlandi."⁶ "Ahmad Ibn Taymiya bilan asrdosh, shofeiy mazhabining yirik olimi Taqiyuddin Subkiy "Muallaq taloq" masalasiga bag'ishlab yozgan "Ad-Durratul muziyya fir raddi a'la Ibn Taymiya" nomli risolasida aytishicha, Ahmad Ibn Taymiya qariyb 60 ta masalada jumhurga⁷ qo'shilmagan. Muallaq taloq masalasi Ibn Taymiyaning jumhurga xilof bildirgan fikrlari ichida eng birinchisi bo'lgan. U mana shu fatvosi bilan jumhurga qarshi chiqishni boshlagan edi."⁸ E'tibor qilinsa, Ibn Taymiyaning oltmishta masalada ko'pchilik ulamolar jamoasining fikriga qarshi chiqishi uning to'g'ri yo'ldan adashgan ekanligini tushunish uchun kifoya qiladi, aslida.

"XVIII asrga kelib Muhammad ibn Abdulvahob ismli shaxs Ibn Taymiya qarashlarini jonlantirdi. Uning davrida soxta salafiylik ta'limoti keng yoyildi. XIX asrning ikkinchi yarmida Nosiriddin Albaniy ismli shaxs soxta salafiyalarning ehtirom etiladigan "shayx"laridan bo'lib tanilgan hamda faoliyati davomida soxta salafiylik qarashlarini ifoda etuvchi bir qancha kitoblar ta'lif etgan. Nosiriddin Albaniyning ana o'sha kitoblarida islom shariatiga oid mo'tabar manbalar, kitoblarga nisbatan qilgan xiyonati ahli sunna val jamoa ulamolari tomonidan fosh etib kelinmoqda.

"Ibn Taymiyaning g'oyalari keyinchalik turli mutaassib guruh va harakatlar yetakchilari qarashlariga asos bo'lib xizmat qildi. Jumladan XVIII asrda tarixiy adabiyotlarda "ad-da'vatud damaviya", ya'ni "qonli da'vat" nomini olgan harakatlar paydo bo'ldi. Soxta salafiylik XIX asrning ikkinchi yarmidan o'z oldiga halifalikka asoslangan islom davlatini barpo etish vazifasini qo'ygan "islohotchilik", "panislomizm"⁹ niqobi ostida yangidan jonlandi. Abul A'lo al-Mavdudiy, Hasan al-Banno, Sayyid Qutb, Abdusalom

⁵ "Islomdagi yo'nalishlar va mazhablar" darslik / S.S.Saidjalolov. «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyat-matbaa birlashmasi Toshkent-2020, 114-sahifa.

⁶ "Salafiy"larga ilmiy raddiyalar / Botirjon Tojiboyev, Yunusxon Mamarasulov. – Toshkent: Azon kitoblari, 2021. -180 b, 12-sahifa.

⁷ Ahli sunna val jamoa ulamolarining ko'pchiligi

⁸ "Salafiy"larga ilmiy raddiyalar / Botirjon Tojiboyev, Yunusxon Mamarasulov. – Toshkent: Azon kitoblari, 2021. -180 b, 160-sahifa.

⁹ Panislomizm-XIX asr oxirida butun musulmon olamini mustamlakachilarga qarshi kurashda birlashtirish to'g'risidagi harakatga Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari, shuningdek sobiq Ittifoq tomonidan berilgan rasmiy nom. (9-sinf "jahon tarixi", 2019. 115-sahifa)

Faraj, Abdurahmon al-Kavokibiy, Ayman az-Zavohiriy, Usoma bin Lodin kabi shaxslarning radikal fikrlari soxta salafiylik mafkurasi rivojiga katta hissa qo'shdi. Ular tomonidan "musulmon xalqlarining diniy-siyosiy ittifoqi" g'oyasi ishlab chiqildi. Bu g'oya ostida an'anaviy mazhablardan voz kechish va islomning ilk davriga qaytishga da'vat qilindi."¹⁰ Keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, soxta salafiylik oqimining qarashlari asosida islom shariatini noto'g'ri talqin etib, buzg'unchi g'oyalarni ilgari suruvchi ko'plab tashkilotlar yuzaga kelgan.

Soxta salafiylarning asl buzg'unchi maqsadlarini fosh etish uchun ularning islom shiari nomidan qilgan da'volari,ga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Zero, bugungi kungacha ular tomonidan uyushtirilgan teraktlar, ixtiloflar, ijtimoiy nizolar, boshboshdoqliklar ularning botil da'volari mahsulidir. Shu sabab quyida ularning iddaolariga e'tiborimizni qaratamiz. Adashgan toifalarning faoliyatini ilmiy asosda fosh etib bergan, "Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyshmalar" kitobida soxta salafiylarning quyidagi da'volari keltiriladi:

- "Qur'on va sunnatda yozilgan qoidalarni so'zma-so'z tushunib, ko'r-ko'rona amal qilish orqali boshqa manbalarni botilga chiqaradilar;

- "Jihad"ni islomning oltinchi arkoni deb hisoblaydilar;

- "Takfir" (kufirda ayblash) va "hijrat" (vatanni tark etish) masalasini ilgari suradilar;

- Fiqhiy mazhablarni inkor qilib, mazhabsizlikni targ'ib qiladilar;

- Tasavvuf, urf-odat va milliy qadriyatlarni inkor etadilar;

- G'ayridinlarga o'ta toqatsiz munosabatda bo'lib, diniy bag'rikenglikni yoqlamaydilar;

- Har qanday yangilikni "bid'at" deb hisoblab, uni rad etadilar;"¹¹

Soxta salafiylarning da'volari va ularga ahli sunna val jamoa ulamolari tomonidan aytilgan raddiyalar borasida bir nechta kitoblar yozilgan. Xususan, "Salafiy"larga ilmiy raddiyalar", "Ixtilofli masalalarning yechimlari", "Mazhablar birlik ramzi" nomli o'zbek tilida yozilgan asarlar shular jumlasidandir. Soxta salafiyilar ilgari surib kelayotgan da'volari asossiz ekanligi, shariat maqsadlariga zid kelishi hamda Islomning asoslariga muvofiq emasligi ulamolarimiz tomonidan shar'iy dalillar bilan isbotlab berilgan. Shu sabab, bu haqida uzoq to'xtalmasdan kelgusi satrlarda ularning faoliyat uslublari haqida baxs yuritiladi.

Soxta salafiylik faoliyatining dastlabki davrida, ular ta'limoti asoschisi Ibn Taymiya va uning izdoshlari islom mafkurasi(e'tiqod) hamda ibodat masalalariga e'tibor qaratishdi. Ahli Sunna val jamoa ulamolariga xilof qilib, o'z yo'lini "manhaju salafis solih" deb atadi va shu manhaj asosida hayot kechirish lozimligini ta'kidladi. XVIII-XIX asrlarda soxta salafiylik qarashlari "siyosiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini bayroq qilib", islomning siyosiylashishiga, "islom xalifaligini tiklash" g'oyalarining keng yoyilishiga olib keldi. XX asr o'rtalaridan boshlab salafiylik qarashlari asosida diniy-siyosiy, ekstremistik-terrorchi

¹⁰ "Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyshmalar" / K. Shermuhammedov, J. Karimov – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. – 160 b. 6-sahifa

¹¹ "Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyshmalar" / K. Shermuhammedov, J. Karimov – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. – 160 b. 7-sahifa

guruhlar tashkil topib, bugungi kungacha “islom jamiyatini qurish davlatchilikning asosi bo‘lishi kerak” degan shior ostida jinoiy faoliyat yuritib kelmoqda

Soxta salafiyilar va ular qarashlari asosida shakllangan terroorchilarning uyushmalar asosan musulmon jamiyatlarida faoliyatlarini olib borishga intilib kelgan. Islom nomidan faoliyat yuritishga asoslangan bunday uyushmalar g‘oyalarini targ‘ib etishlari uchun fuqarolarining aksarini musulmonlar jamiyati tashkil etgan yurtlar qulay hisoblanadi. Shu sabab, o‘tgan asrning so‘nggi choragida diniy-ekstremistik, terroorchilarning faoliyati aholisining ko‘p qismi musulmonlardan iborat Markaziy Osiyo davlatlari hududiga ham kirib kela boshladi. Xususan, XX asrning 80-90-yillaridan boshlab, Markaziy Osiyo davlatlarida soxta salafiylik hamda uning g‘oyalari ta’sirida shakllangan oqimlar faoliyati yuzaga keldi. Ular faoliyatining avvalida “Hujra” uslubidan foydalanganliklari manbalarda zikr etiladi. Ya’ni, yashirin hujralarda noqonuniy ta’lim jarayonlari tashkil etilib, ularda Islomning asoslarini noto‘g‘ri talqin etish yo‘li bilan o‘zlarining mafkuraviy g‘oyalarini singdirishga urinishgan. Shu bilan birga aqidaparast g‘oyalari talqin etilgan adabiyotlar, ovozli yoki video ko‘rinishdagi materiallarni xalq orasida keng tarqatish uslubida ham ish olib borishgan. Soxta salafiyilarning Markaziy Osiyo davlatlarida yuritgan faoliyat bosqichlari haqida quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin bo‘ladi: Musulmonlar jamiyatida yashirin, noqonuniy diniy ta’limni yo‘lga qo‘yish; Musulmon jamiyatining diniy ilmlardan yiroq, mafkuraviy bo‘shliq mavjud qatlami orasida diniy aqidaparastlik g‘oyalari singdirilgan adabiyotlar, ovozli va video materiallarni tarqatish; Insonlarni taqvoga chaqirish (bunda, targ‘ib etilayotgan “taqvo” so‘zidan, aslida, bizning so‘zlarimizga ergashib, degan maqsad ko‘zlangan); Mutaassib g‘oyalardan ta’sirlangan kishilardan jamoalar tuzish; Ularga ergashganlardan “Baytulmol uchun”, degan sabab bilan soliq undirib, moliyaviy jihatdan katta kuchga ega bo‘lish; “Islom davlatini qurish” shiori ostida, zimdan mavjud hukumatni ag‘darish uchun ommaviy tartibsizliklar tashkil etish; O‘zlariga ergashganlar orasidagi kuch-quvvatga to‘la yoshlarni “jihod” va “hijrat” qilish uchun tayyorlash; Ekstremistik-terroorchilarning harbiy lagerlarida tayyorlangan jangarilar qo‘li bilan buzg‘unchi-qo‘paruvchilik harakatlarini amalga oshirish;

Soxta salafiylik kabi diniy-ekstremistik oqimlar faoliyatini kuzatadigan bo‘lsak, maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida qo‘llagan uslublari dastavval musulmonlarni taqvo qilishga chaqirish, musulmonlar orasida mutaassib g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan adabiyotlar, video va boshqa materiallarni tarqatish ko‘rinishida, keyinchalik esa jamoatchilik orasida vahimali xabarlarini tarqatib, fitna qo‘zg‘ash, hudkushlar orqali teraktlar sodir etib, hukumatga nisbatan fuqarolarda ishonchsizlikni keltirib chiqarish, turli ommaviy yig‘ilishlar tashkil etib, xalqni hukumatga qarshi ko‘tarilishga targ‘ib etish, yakunda esa “Islom davlatini qurish” da’vosi bilan hukumatni qo‘lga kiritish uchun terror va qo‘paruvchilik harakatlarini uyushtirish kabi ko‘rinishlarda kechganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda muhim jihatga e’tibor qiladigan bo‘lsak, diniy-ekstremistik radikal toifalar faoliyatining yakuni ularning asl maqsadlari hukumatni qo‘lga kiritish ekanligiga dalolat qiladi. Ekstremistik-terroorchilarning uyushmalar faoliyatining oqibatlarini dunyo miqyosida olib qaralsa, fikrimiz yaqqol isbotini topadi. Ya’ni, ular tashkil etgan harakatlar asosan, hokimiyatni egallashga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, 2010-yil 18-

dekabrda boshlanib, Arab baxori nomini olgan, shimoliy Afrika va yaqin Sharq mamlakatlarida ro'y bergan inqilobiy namoyish va noroziliklar to'liqini eslab o'tishimiz mumkin. Uning oqibatida:

- 2011-yil 14-yanvar kuni Tunis davlatini 23 yil mobaynida boshqargan Prezident Zayn Al-Obidin Ben Ali o'z vakolatidan voz kechadi va Saudiya Arabistoniga qochib ketishga majbur bo'ladi.

- 2011-yil 25-yanvar kuni ekstremistik uyushmalar tashkillashtirgan siyosiy harakatlar oqibatida Misrda Prezidenti Husni Muborak ham Tunis prezidenti singari o'z vakolatlarini topshirishga majbur bo'ladi.

- 2011-yil noyabr oyida Yaman Prezidenti Ali Abdulloh Solih muxolifat bilan hokimiyatni topshirish haqida bitim imzolashga majbur bo'ladi.

- 2011-yil 15-fevralda Liviya davlatini 42 yil boshqargan Muammar Qaddofiy taxtdan ag'darilib, mamlakat chuqur inqirozga yuz tutadi.

Bugungi davrda ular faoliyat uslubi biroz o'zgarib, yanada xavfli tus olmoqda. Sababi, ekstremistik va terrorchi uyushmalar bugun o'z g'oyalarini targ'ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo'llamoqda. Internet orqali olib borayotgan targ'ibot uslublari avvalgisidan farq qiladi. Endilikda, ijtimoiy tarmoqlar orqali musulmonlar orasida taniqli ulamolarga nisbatan tuxmat va obro'sizlantirish harakatlari uyushtirish orqali ularga ergashishlikdan to'sish, insonlar orasida vahima uyg'otishga qaratilgan ig'vo, fitna-fasod xabarlar tarqatish, internet tarmoqlarida doimiy aktiv qatlamning psixologik ongini analiz qilgan holda ularni o'z g'oyalariga ergashtiruvchi video, maqola, rasm va boshqa ko'rinishdagi ta'sirli kontentlar tayyorlab tarqatish kabi uslublardan foydalanishmoqda.

Ular faoliyatidagi mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarining bosh obyekt jamiyatning hali tajribaga ega bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga beriluvchan va ayni paytda eng harakatchan qatlami, ya'ni yoshlardir. Chunki, yoshlardagi kuch-g'ayrat, diniy ilmlarga bo'lgan qiziqish va intilish, ishonuvchanlik, qiziqqonlik, birdaniga hamma narsaga (boylik shon-shuhrat, martaba va hokazo...) ega bo'lishga harakat qilish kabi ma'naviy ruhiy omillarning ustunligi, soxta salafiylarning maqsadlarini amalga oshirishda qo'l keladi.

“Tadqiqotlar hozirda jahon internet tarmog'ida soxta salafiylarning targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish uchun ochilgan bir necha mingdan ziyod veb-saytlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ularda asosan diniy asosdagi nizolarni keltirib chiqaradigan ma'lumotlar, diniy ekstremistik va terrorchi tashkilotlar xabarlarining turli bayonot va murojaatlari joylashtirilmoqda. Shuningdek, soxta salafiylarga tegishli saytlarda “mina portlatish ishlari”, “shaharlar va tog'li hududlarda jang olib borish san'ati”, “zaxarlovchi moddalardan qurol tayyorlash va undan foydalanish”, “maxfiy operatsiyalar o'tkazish uslublari”, “o'z joniga qasd qilish yo'llari” kabi qo'poruvchilik va terrorchilikni targ'ib qiluvchi saxifalar mavjud.”¹² Bundan shuni tushunsa bo'ladiki, soxta salafiylarning bugungi tahdidi oldingisidan ko'ra xavfli tus olmoqda. Chunki, texnologiyalar rivojlangan bugunimizda deyarli barcha insonlar qo'l telefonlari va internetdan foydalanadilar desam mubolag'a

¹² “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari: O'quv qo'llanma/ - Toshkent, “Movarounnahr“ nashriyoti, - 2026. -224 b. 7-sahifa

qilmagan bo‘laman. Bu hol soxta salafiyilar uchun g‘oyalarini keng ommaga targ‘ib etishda ayni muddao bo‘lmoqda.

Xulosa: Soxta salafiyilar faoliyati haqida xulosamiz shuki, bu oqim tarixda yuzaga kelgan davridan boshlab o‘z zamonining xolis ulamolari tomonidan malomatga uchragan, ilgari surgan da‘volari esa insonlarni to‘g‘ri e‘tiqoddan adashtirib jamiyatda parokandalikni keltirib chiqargan, bu toifa o‘zlariga ergashgan ilmsiz kishilardan foydalanib, dunyo bo‘ylab teraktlar, qatliomlarni uyushtirib kelgan. Bunday xunrezliklar dunyo mamlakatlari qonunchiligida jinoyat deb hisoblanadi. Demak, bu o‘rinda “soxta salafiylik” aslida, uyushgan jinoyat tashkilot deb xulosa qilishimiz mumkin bo‘ladi.

Soxta salafiyilarning islom nomidan ilgari surayotgan da‘volari borasida xulosa qilar ekanmiz, ularning da‘volariga ergashgan ko‘plab insonlar to‘g‘ri e‘tiqoddan adashib, buzg‘unchi oqimlarga qo‘shilgan holda bir qancha jinoyatlarni sodir etib, jinoyatlarini amalga oshirish jarayonida ularning ko‘plari halok bo‘lmoqda. Ularning ortida esa ota-onalari, ayoli va farzandlari qon yig‘lab qolmoqdalar. Undan tashqari, internet tarmoqlari orqali ularning targ‘ibot ishlariga aldanib, ular aytgan manzilga chiqib ketmoqchi bo‘lganida davlat xavfsizlik xodimlari tomonidan qo‘lga olinib, hayotining eng kuch-quvvatga to‘lgan davrini qamoqxonalarda o‘tkazayotganlar ham oz emas. Ular qamoqxonada ekanligida oilasiga kim ro‘zg‘or ta‘minotini qiladi?! Ota-onasiga kim g‘amxo‘rlik qiladi?! Ularning o‘sib kelayotgan farzandlarining ta‘lim olishiga kim kafil bo‘ladi?! Oxiri yo‘q bu savollar, nahot tafakkur qilishga undamasa! Ming yillik an‘ana va qadriyatlarni mensimay oyoq-osti qilib, o‘zidan boshqalarni dinga amal qilmaslikda ayblash johillikning o‘zginasi emasmi?! Azizlar, soxta salafiyilarning botil da‘volariga aldanib qolmaslik uchun ularning faoliyatidan oilamizni ham, yaqinlarimizni ham ogoh etaylik.

Yechim: Din borasidagi masalalarda ahli sunna val jamoa ulamolariga ergashib, islom dinining asl mohiyatini hamda maqsadlarini to‘g‘ri anglash o‘ta muhim hisoblanadi. Bu borada muallifning taklifi shuki, bugungi kundagi radikal toifalarning ma‘naviy xurujlari masalasining yechimi uchun avvalo xalq ma‘naviyatini yuksaltirish ishlariga e‘tiborni kuchaytirish lozim. Shuningdek, musulmonlarga islom dinining asl mohiyati va maqsadlarini to‘g‘ri talqinda yetkaza oluvchi, ilmiy-salohiyatli mutaxassis kadrlarni ko‘paytirish hamda botil toifalarning g‘arazli maqsadlari va da‘volarini fosh etib, ularning faoliyatidan xalqni ogoh etishda ommaviy axborot vositalarini keng va samarali qo‘llash bugungi zamonimiz taqozosiga ko‘ra shartdir. Qolaversa, bu borada diniy mavzularga oid adabiyotlar, Internet va ommaviy axborot vositalari materiallarini chuqur tahlil qilish, siyosiy-ijtimoiy muhitning barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish ham amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda va biz bu borada doimo kerakli ishlarni bajarishga harakat qilamiz.

O‘zbekiston Respubikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Jaholatga qarshi ma’rifat”: (o’quv qo’llanma) / J.Karimov . O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot birlashmasi Toshkent-2021, -212B.
2. “Qirq hadis hikmati” sharh/Imom Navaviy – Toshkent: “Qamar media”MCHJ nashriyoti, 2021. – 472b.
3. “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari”: O’quv qo’llanma/ - Toshkent, “Movarounnahr“ nashriyoti, - 2026. -224 b.
4. “Qur’on ilmlari” – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. -504 b.
5. “Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyshmalar” / K. Shermuhammedov, J. Karimov – Toshkent: O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. – 160 b.
6. “Salafiy”larga ilmiy raddiyalar / Botirjon Tojiboyev, Yunusxon Mamarasulov. – Toshkent: Azon kitoblari, 2021. -180 b.
7. “Jahon tarixi”, 9-sinf uchun darslik, 4-nashr, “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent - 2019.
8. “Riyoziy solihiy (Solihlar gulshani)”. Arab tilidan Anvar Ahmad tarjimasini, 3-kitob. T.:“Sharq”, 2021.- 424b.
9. “Hidoyat ortiga yashiringan zalolat” / “Toshkent islom universiteti“ nashriyot-matbaa birlashmasi, - 2010.
10. [O’zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi \(sammuslim.uz\)](http://sammuslim.uz)
11. https://youtu.be/eXrWjIjZtLM?si=StE3dtMRT0_uRNC4